

Alisher NAVOIY

## HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD

### BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

*Ey charx, ne davrlarki dast etting,  
Davringda muhabbat ahlini mast etting,  
Har kimniki, olamda zabardast etting,  
Oxir ajal ilgida ani past etting.*

Tariq fanosida mufarrad va fano tariqida mujarrad, jahondag‘i pahlavonlarning pahlavoni jahoni va pahlavonlig‘ jahonining jahon pahlavoni, surat va ma‘nida beshabih va benazir, ya‘ni Pahlavon, shamsul-millati vaddin<sup>1</sup> Muhammad Kushtigir<sup>2</sup> siyrat va suratida.

Pahlavonning nasabida sayodat sharafi bor, ammo chun tag‘oyisi Pahlavon Abusaid<sup>3</sup>kim, zamonning pahlavon va musallam kushtigiri erkondur va Pahlavon kichik yoshlig‘ erkonda ul fanda kundandunga andin g‘aribosor va ajib namudorlar zohir bo‘lur erkondur. Andoqki, oz fursatda jami‘ abnoyi jins borini mag‘lub qilib, borig‘a foiq va g‘olib kelibdur. Chun ro‘zgor harunlig‘idin va laylu nahor buqalamunlig‘idin<sup>4</sup> Pahlavon Busaid hayot vadyatin muqtazoyi ojil<sup>5</sup>g‘a topshurubdur. Pahlavon istihqoq bila pahlavonliq sartaqiyasiga o‘lturubtur va bu toyifa sarhalqalig‘in tav‘ va rag‘bat bila qabul qilibdurlar. Nevchunki ul, agarchi kuch va zabardastlikda zamonning munfaridi erkondur, ammo kushtidonlig‘ va zabardastlig‘da ham andoq ekondur va bu toyifadin bu o‘tgan to‘rt-besh yuz yil, balki ming yilda aningdek hech yod bermaydur va naql qilmaydur. Bovujudi ulki, o‘z fanidaki, kushti bo‘lg‘aykim, shuhrati ul ism biladur va oncha yakfanliqda va mardum afkanliqda kichik yoshliq erkondurkim, shogird kushtigir erkondur va bu fanda ne varzish qilur erkondur. Chun qobiliyati baland tushgandur va muloyamati tab‘i borcha funung‘a munosib va bahramand voqe‘ bo‘lg‘ondur, ko‘p fazonil va kamolot ham kasb qilg‘ondurkim, zamon ahli borchada Pahlavonni musallam tutar erdilar.

Ul jumladin advor<sup>6</sup> va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo‘b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg‘ub. Ul daqiq fanda ko‘shish va sa‘y ko‘rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqsh<sup>7</sup>lar va amal<sup>8</sup>lar va dilpisand qavl<sup>9</sup>lar va g‘azallar tasnif

---

<sup>1</sup> Shams ul-millati vad-din – millatning va dinning quyoshi. Bu oliy rutbali shaxslarga beriladigan laqab.

<sup>2</sup> Pahlavon Muhammad davrning yirik madaniyat arboblardan edi. Alisher Navoiy bu go‘zal insoniy fazilatlariga ega, ilg‘or fikrli shaxs bilan 40 yil mobaynida yaqin do‘st bo‘lgan va uni o‘zining murabbiysi sanagan. Pahlavon Muhammad xalq kurash turlaridan «kushtigir» – yakkama-yakka kurash tushishda shuhrat qozongan. Hech shubhasizki, Navoiydek ulkan arbob va buyuk shoir faoliyati hamda ijodiyoti yo‘nalishida, ravnaqi va takomilida Pahlavon Muhammad kabi ulkan madaniyat namoyandalarining o‘rni katta bo‘lgan.

Pahlavon Muhammad vafotidan keyin Navoiy uning xo-tirasini abadiylashtirib, bu risolasini yozgan. Unda do‘sti va murabbiysining g‘oyat jozibali obrazini yaratgan hamda xarakterini go‘zal va betakror chizgilarda ochib bergan.

<sup>3</sup> Paxlavon Abusaid – Pahlavon Muhammadning tog‘asi, mashhur kurashchi – pahlavon, kichikligida Pahlavon shu tog‘asidan kushtigirlikni o‘rgangan.

<sup>4</sup> Ro‘zgor harunlig‘idin va laylu nahor buqalamunlig‘idin – taqdirning o‘jarligi va kechayu kunduzning o‘zgaruvchanligidan, demakdir.

<sup>5</sup> Muqtazoyi ojil – o‘lim.

<sup>6</sup> Advor – musiqqa nazariyasi.

<sup>7</sup> Naqsh – kuy, ashula.

<sup>8</sup> Amal – kuy, ashula, ohang.

<sup>9</sup> Qavl – so‘z, gap, musiqaga solingan she‘r.

qilur erdi va xo‘b ayur erdi. Andoqki, eshitgan xavos va avom xushhol bo‘lmoqda beixtiyor va o‘rganmoqda beqaror erdilar.

Ul asrning bu fanda mohirlari misli: Ustod Muhammad Xorazmiy va Mavlono Nu‘mon va Mavlono Sohib Balxiy va Shayx Safoyi Samarqandiy va Xoja Yusuf Andijoniy<sup>10</sup>dek kishilarning tasnifoti muqobalasida ishlar yasabdur va naqsh va sufiya va amal va qavl va jir chorzablardek va chun o‘zi alarning ko‘pidan ham xushgo‘yroq va ham xushxon ermish, ishlarining shuhrati ko‘proq voqe‘ bo‘lur emish.

Mashhur amallaridan biri «chahorgoh» amalidurki, Mavlono To‘tiy<sup>11</sup> (alayha rahma) ning ul she‘ridinkim, matlai budur:

*Soqiyo, de rafta hastu ahvoli fardo nopadid,  
Xeshro imruz xush doremu fardoro ki did?*<sup>12</sup>

kim, Mir Buzurg Termiziy<sup>13</sup> otig‘a bog‘labdurkim, bag‘oyat xushoyanda va muloyim eshitilur va dalil bukim, Xuroson mulkida, balki Samarqand va Iroqda hamul ishni bilmas go‘yanda yo‘qtur, balki g‘ayri go‘yanda dag‘i behad va hasr xaloyiqning yodidatur. Yana «segoh» amalidurkim, Mavlono Xusrav<sup>14</sup>ning she‘rig‘a bog‘labdur va matlai budurkim:

*Ey zi tobi orazat sham‘e ba har koshonay,  
V-ey asiri purxami zulfat dili devonay*<sup>15</sup>

kim, Bobur<sup>16</sup> otig‘a bog‘labturki, ul dag‘i bag‘oyat muassir va xushoyanda ishdur. Yana «segoh» amalidurki.

Mavlono Kotibiy<sup>17</sup> ning ul she‘ridinkim, matlai budurkim:

---

<sup>10</sup> Ustoz Muhammad Xorazmiy, Mavlono Nu‘mon, Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safoyi Samarqandiy, Yusuf Andijoniy Hirot madaniy hayotining faol ishtirokchilari, shoir, bastakor va sozandalar.

Navoiy Pahlavon Muhammad ularning asarlari qabilida musiqalar yaratganini ta‘kidlab, ba‘zi jihatlarini ulardan yaxshiroq chiqishiga erishgan, ovozi g‘oyat yoqimli va go‘zal bo‘lgani sababli ko‘proq shuhrat tutgan edi, deb yozadi.

<sup>11</sup> Mavlono To‘tiy – asli turshizlik shoir. Navoiy «Majolis un - nafaos»da Mavlono To‘tiy Abulqosim Bobur Mirzo zamonida tarbiyat topganligini ta‘kidlaydi va yaxshi qasida va g‘azallari borligini e‘tirof etadi. Yoshlikda dunyodan o‘tgan bu shoir vafotiga Navoiy «xurus» so‘zi bilan ta‘rix tushirgan edi, bu so‘zdan abjad hisobida 816 yil chiqadi. Demak Mavlono To‘tiy 1461 – 62 yillarda vafot etgan.

<sup>12</sup> Tarj.: Ey soqiy, qishning ikkinchi oyi ketdiyu ertaniig ahvoli noma‘lum; o‘zimizni bugun xursand qilaylik, ertani esa kim ko‘ribdi?

<sup>13</sup> Mir Buzurg Tirmiziy - o‘z davrining g‘oyat nufuzli siymolaridan. Abu Said mirzoning o‘g‘li Sulton Mahmud mirzoning otasi, Sulton Mas‘ud mirzoning bobosi.

<sup>14</sup> Mavlono Xusrav – bu bilimdon sohibi devon, lekin dag‘al tabiatli. Hirotida vafot etgan shoir haqida «Majolis un-nafaos»ning II majlisida Navoiy ma‘lumot berib yozadi: «Da‘voliq va buzurgmanish va tundxo‘ kishi edi. Faqir qoshig‘a ba‘zi mahalda she‘r keltursa erdi, burunroq andoq kalom surar erdikim, daxl qilmoq yuli bog‘lanur erdi. Zaruratan, barcha she‘rni tahsin qilmoq kerak erdi.

<sup>15</sup> Tarj.: Chehrang toblanishidan har bir jonga sham‘ paydo bo‘ladi, devonalar dili jingalik buralib ketgan sochlarning asiridir.

<sup>16</sup> Bobur – Abulqosim Bobur, temuriylardan. 1447 – 57 yillarda Xurosonda hukumronlik qilgan. Shohrux vafotidan keyin avj olib ketgan temuriy shohzodalarining o‘zaro kurashlariga bardosh bera olmay shaharni tashlab ketganlar Abulqosim taxtga o‘tirtgach, qaytib kela boshlaydilar. Ular orasida Alisher Navoiy oilasi ham bor edi. Shoirning otasi shoh xizmatiga kiradi va birozdan keyin Sabzavor hokimi qilib tayinlanadi. Otasi vafotidan so‘ng yosh Alisher ham saroy xizmatiga kiradi. Abulqosim Bobur ma‘rifatli hukumdor edi. U ilm va adab ahliga homiylik qilar edi. «Majolis un-nafaos»da Navoiy u yoki bu shoir yoki voqealar munosabati bilan 12 joyda Bobur mirzoni tilga oladi va VII majlisda unga alohida maqola bag‘ishlandi. Uning darzeshvash tabiati, go‘zal ahloqli, yuksak hikmatli shaxs bo‘lganligini ta‘riflab, tasavvufda ham bilimdon va yaxshigina shoir ham bo‘lganini qayd etib o‘tadi. Boburning bir forsiy ruboiysi va quyidagi turkiy baytni keltiradi:

*Necha yuzung ko‘rub hayron bo‘loyin,*

*Ilohi man sanga qurbon bo‘loyin.*

Abulqosim Bobur 1457 yilda Mashhadda vafot etgan.

<sup>17</sup> Mavlono Kotibiy – Shamsuddi Muhammad ibni Abdulloh (tavalludi noma‘lum, Turshetz – 1435, Astrobod), mashhur shoir, xattot va munshiy. Yaxshi kotib bo‘lganligidan «Kotibiy» taxallusini olgan. Shoirning Nishopurda tahsil olgani, Hirot, Samarqand,

*Gahiki, tig'i tu dar qatli ahli did baroyad,  
Ba yak mushohada maqsudi sar shahid baroyad*<sup>18</sup>.

Bu ishni bog'lamoqdin g'arazi bu matla' ermishkim:

*Manoli Kotibiy az shomi g'am ki subhi saodat  
Ba yumni davlati Sulton Abusaid baroyad*<sup>19</sup>

kim, Sulton Abusaid mirzo<sup>20</sup> otig'i bog'labdur, nihoyatdin tashqari dilpazir ish tushibdir.

Va ulkim, Sultoni Sohibqiron<sup>21</sup> xizmatig'a musharraf bo'ldi, Mashhaddin «saydi g'azol»<sup>22</sup> sho'basida ul humoyun hazratning ismig'a o'zining bu she'rinki:

*Onjo ki bar dargahat ro'i niyoz ovardaem,  
Ro'i dil dar ka'bai iqbol boz ovardaem*<sup>23</sup>

amal yasab erdi va bozgo'yi<sup>24</sup> da bu ikki baytin bog'lab erdi va insof olamida bu ikki baytdek oz aytibdurki, mamduhning beshinchi otasig'acha zikr bo'lmish bo'lg'aykim:

*Sulton Husayn xusravi g'oziyki misli o'  
Hargiz nabuda dar sadafi ruzgor dur.*

*Shoh ast shahriyor padar bar padar ki hast,  
Mansur Boyqaroyi Umarshayxi bin Temur*<sup>25</sup>.

Bu amalda base maqomot<sup>26</sup> va shaabote<sup>27</sup> darj qilib erdikim, ta'rifdin mustag'nidur va asru dilpazir va bag'oyat benazir bog'lanib. yana ishlar ham misli: «qavl» va «g'azal» va «chorzarb»<sup>28</sup> dek va «savn»<sup>29</sup> va «naqsh» xud behaddu add bog'labdurki, xaloyiq orasida mashhurdurki, borchasin darj qililsa mujibi itnob bo'lur.

---

Mozandaron, Shilon, Hijoz, Tabriz va Isfahonlarda bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Umrining oxirlarida Astrobodda muqim bo'lgan va shu yerda vafot etgan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»ning bir majlisida Qotibiyga maqola bag'ishlagan. Uning qasida janrida ixtirolar qilgani, «Tajnisot», «Zul-bahrayn», «Zulqofiyatayn», «Husn va Ishq», «Nosir va Mansur», «Baxrom va Gulandom» nomli masnaviyarlari, g'azallar devoni, qasidalar devoni borligini ta'rif qilib, Navoiy «Xamsa»ga kirishdiyu oxiriga yetkaza olmadi, deb yozadi. Navoiy taassuf bilan «Bizning Sulton Sohibqirondek (ya'ni, Husayn Boyqaro – S. G'.) suxandon podsho anga murabbiy bo'lsa erdi va umri dag'i biror nima vafo qilsa erdi, ko'p elning ko'nglin she'r aytmoqdin sovutqay erdi», – deb yozadi va Kotibiyning she'riyatidagi mahoratiga yuksak baho berib, g'azal, qasida va masnaviyalaridan namunalar keltiradi.

Kotibiy toun – vabo kasalidan vafot etgan va Astrobodda «Nuh go'ron» qabristoniga dafn etilgan.

<sup>18</sup> Goho tig'ing oshiqqlar qatli uchun ko'tarilganda, bir ko'rish bilan yuz shahidning maqsadi hosil bo'ladi.

<sup>19</sup> Tarj. Kotibiy g'am tuningdan nolima, Abusaid davlati barakatidan saodat tongi otib qoladi.

<sup>20</sup> Sulton Abu Said – Qarang: ushbu kitob 220-bet, 38-izoh.

<sup>21</sup> Sultoni Sohibqiron – Sulton Husayn Boyqaro – Qarang: ushbu kitob, 186-bet, 32-izoh.

<sup>22</sup> «Saydi g'azol» – mumtoz musiqa yo'llaridan biri.

<sup>23</sup> Dargohingga yolvorib yuzlanganimda, ko'ngil yuzini iqbol ka'basiga yo'naltirgan bo'laman.

<sup>24</sup> Bozgo'y – ashulada biror so'z yoki she'rni takror aytish.

<sup>25</sup> Sulton Husayn g'olib podshohdir, uningdek ro'zgor sadafida hech kim, hech qachon bo'lmagan; U shohdir, otasi – Mansur Boyqaro Umarshayx bin Temur ham buyuk shoh bo'lgan.

<sup>26</sup> Maqomot – musiqashunoslik ilmida Shashmaqom, Horazm maqomlari va Farg'ona - Toshkent maqom yo'llarining majmuasi ma'nosida qo'llaniladi.

<sup>27</sup> Shaabot – musiqa yo'llari.

<sup>28</sup> Chorzarb – musiqiy kuy nomi.

<sup>29</sup> Savt – musiqiy kuy.

Va she'r va muammo<sup>30</sup> bobida ilmiy va amaliysida Pahlavon sohib vuquf va jald erdi, ul nav'kim, zamon shuarosining yuzidin biriga oncha shuur va vuquf yo'qtur va aksar nazm ahli har nav' she'r aytalar erdi — Pahlavon nazarig'a yetqururlar erdi va aning isloh va tag'yir va tabdilin qabul qilur erdilar va o'zining dag'i she'r va muammo fannida tab'i muloyim erdi. Andoqki, bu matla' Pahlavonningdurki:

*Guftamash»: «Dar olami ishq i tu koram bo g'am ast?  
Guft xandon zeri lab: «G'am nest, kori olam ast»<sup>31</sup>.*

Va «Kushtigir» taxallus (qilur erdi) va bu tab'ning taxallusi asru xo'b voqe' bo'lubturki:

*Az xayoli pechtobi kokuli mushkini o',  
Dudi dil bar farqi Kushtigir hamchun parcham ast.*

Muammo tariqida xud muxtari' erdi. Jam'iki muammo ayturlar<sup>32</sup>, base zahmat bila bir baytdin yo bir ruboiydin bir ism hosil qilurlar. Pahlavon ustod ab'yotidinkim, qoyil muammo qasdi qilmamish bo'lg'ay, tab'i o'zi bila ismlar paydo qilib erdi va bu ko'p voqe' bo'lubturkim, holo ushshoq orasida bor. Ul jumladin, Hazrati Xoja Hofiz Sheroziy<sup>33</sup> ning devonining burung'i g'azalining matlaidinki, bag'oyat mashhurdir. «Ali» ism chiqoribdurki:

*Alo yo ayyuhas-soqiy adir ka'san va navvilho,  
Ki ishq oson namud avval, vale aftod mushkilho<sup>34</sup>.*

Ham Xoja Hofiz bu matlaidinkim:

*Holiyo maslahati xesh dar on mebinam,  
Ki kasham raxt ba mayxonavu xush binshinam<sup>35</sup>.*

*«Amin» ism hosil qilibdur. Bu baytdinkim:  
Ganji zar gar navbad ganji qanoat boqist,  
On ki on dod ba shohon ba gadoyon on dod<sup>36</sup>.  
«Taqiy» ism hosil qilibturur.*

Va yaxshi ruboiylari ham bor. Xoh bir mahalda birov uchun aytg'on, xoh birovning ruq'asig'a javob yuborgan. Ba'zi yoronlarig'a<sup>37</sup> bu ruboiyni bitib yuborib erdikim:

*Gar jon ajalame zi tani noshod barad,  
Hosho ki maro mehri tu az yod barad.  
Xoham ki shavam xok maro bod barad,  
Boshad ki ba so'i Astrobod barad<sup>38</sup>.*

<sup>30</sup> Muammo – Qarang: ushbu kitob, 217-bet, 14-izoh.

<sup>31</sup> Unga aytdimki, sening ishqing Olamida ishim g'amdin iborat bo'ldi. U kulgi aralash miyg'ida «g'am emas», olamning ishqidir, – dedi.

<sup>32</sup> Tarj.: Uning jingalak – buralgan kokili xayolidan ko'ngil dudi kushtigirning boshi ustida xuddi qora nishondir.

<sup>33</sup> Xoja Hofiz Sheroziy – Qarang: ushbu kitob, 218-bet, 19-izoh.

<sup>34</sup> Ey soqiy, kosani aylantir va ich, dastlab ishq oson ko'ringan edi, biroq mushkil tushdi.

<sup>35</sup> Hozirda o'zim uchun shuni maslahat ko'rdimki, mayxonaga ko'chayin va u yerda shod o'tirayin.

<sup>36</sup> Garchi oltin xazinasi bo'lmasa ham, qanoat xazinasi boqiydir, uni shohlarga, bunisini gadoylarga berdi.

<sup>37</sup> Ba'zi yoronlarig'a – bu yerda Alisher Navoiy ko'zda tutiladi.

Va ham ba'zi muxlis va mu'taqid yoronlari ruq'asi javobida<sup>39</sup> aytib erdikim:

*Az ohui romi xud faromo 'sh makun,  
V-az sayde ki romi xud faromush makun.  
Harchand ki boshad faromo 'shkori,  
Az sari g'ulomi xud faromo 'sh makun<sup>40</sup>.*

Va muloyim qit'alari ham bor. Ul jumladin biri budurkim, jo'yi «Sultoni» yoqasida Pahlavon bir langare<sup>41</sup> bunyod qilibdurki, aning ta'rifini qilmoq — quyosh ravshanliqg'a va mayni mastliqg'a ta'rif qilg'ondekdur va bir qatla Sulton Sohibqiron ovdin qaytg'onda ul takiyaga tushubdur va Pahlavon hozir ermas erkandur. Bu jihatdan bag'oyat mutaraddid va mutaassir bo'lubtur. Ul mahalda uzr uchun bu qit'ani aytib erdikim,

q i t ' a:

*Tak'yai moro sharaf biguzasht az charxi barin,  
Po ba ro' afkanda soya soyai parvardygor,  
Garchi gardun atlasi xud kard poyandozi shoh,  
Kosh man mebudami to joni xud kardi nisor<sup>42</sup>.*

Dag'i yaxshi so'z masnaviysi ham borki, nazm ahlining mutaayyinlarig'a ul nav' abyot voqe' bo'lmaydur.

Ul jumladin budurkim, pahlavon Piri y kushtigirkim, Pahlavoni nomurod umrin aning tarbiyatig'a sarf qildi va nazari bu erdikim, qarig'on chog'daki, ul jahon pahlavoni kushtigir bo'lib, Sulton Sohibqiron matbu' tab' nadimi majlisi va Pahlavon farzandi munisi va sham'i majlisi bo'lg'ay va ul bevafoqliq qilib Pahlavondin ayrildi va Pahlavon nomusliq va g'ayratliq jigaxxor kishi erdi va anduhdin ko'nglida so'z va badanida gudoz erdi, ammo mutloq hech kishiga izhor qilmas erdi. Ammo hech nav' maxfiy sirri va rozi yo'q erdikim, bu faqirdin yashurun bo'lg'ay. Andoqki bu faqirning ham andin. Alqissa qarig'onining sharhida va pahlavon Piri yning bu qarig'on chog'da umrdek bevafoqliq bobida masnaviy aytibdurki, bu faqir ab'yotin besh bayt va o'n bayt aytur mahalda o'qur erdi, bir necha bayt sabt qilildi va ul abyot budurkim,

m a s n a v i y:

*Chu bar charx ravshan shavad holi man,  
Ba sad dida gir'yad bar ahvoli man.*

*Maro bor budy guli navshukuft,  
Dareg'o ki bodi xazonash biro'ft.*

---

<sup>38</sup> Agarchi ajal noshod tandan jonni olsa, aslo mehningni mening yodimdan ola olmaydi; xoxlaymanki, tuproq bo'lsamu uni shamol olib ketsa, shunday bo'lsaki, uni Astrobod tomonga eltsa.

<sup>39</sup> Ba'zi muxlis va mu'taqid yoronlari ruq'asi javobida – bu yerda Alisher Navoiy maktubiga Pahlavon yozgan javobi ko'zda tutiladi.

<sup>40</sup> Rom bo'lgan ohuyingni unutma. Sayd qilingan romingni unutma; unutmoklik ne chog'liq bo'lmasin, o'z qulingni unutma.

<sup>41</sup> Langar – yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy; kambag'al, yetimesirlarga ovqat ulashadigan g'aribxona ham langar deyiladi.

<sup>42</sup> Parvardigorning soyasi tak'yamga o'z soyasini solib, uning sharafini baland osmondan ham yuksaltirib yubordi. Agarchi osmon o'z atlasini shohga poyandoz qilgan esa-da, koshki o'zim bor bo'lsaydim, jonimni nisor qilardim.

*Hama umr tuxmi behi koshtam,  
Chu vaqti baromad nabardoshtam.*

*Zi on talx shud zindogonin maro,  
Ki piri fikand az javony maro.*

*Kunun man na on sheri zanjiriyam,  
Badar burda ham zi g'am piriyam.*

*Ba xurdi padar tiftl az on parvarad,  
Ki to dar buzurgy g'am naxo'rad.*

*Zi on dar javoniy bor oyadash,  
Ki dar ahdi piri ba kor oyadash.*

*Maro piry on nav' oxir fikand,  
Ki hecham javony nashud sudmand<sup>43</sup>.*

Bu masnaviy nihoyatin podshoh duosi bila xatm qilibdur va hol ahli bu abyotdin ma'lum qilurlarkim, Pahlavonning tab'ida ne miqdor dardi hol choshnisi bor ekandur.

Yana sanoyi<sup>44</sup> aruz<sup>45</sup> qofiyasi<sup>46</sup> da ham ko'p sohibvuquf erdi. Dag'i qiroat ilmin ham yaxshi bilur erdi va xo'b maxraj va tajvid<sup>47</sup> bila Qur'on o'qur erdi va gohi huffozdin qiroat bobida so'rar erdikim, alar javobidin ojiz bo'lur erdilar. Pahlavondin istifoda qilur erdilar.

Yana nujum ilmin<sup>48</sup> oncha bilur erdikim, har mavlid uchun royijai tole' bitiy<sup>49</sup> olur erdi.

Yana tibb va hikmatg'a ko'p muloyamati bor erdi. Mavlono Qutbuddin<sup>50</sup> kim, bu mulkning mutaayyin tabibidur — bu fanni kasb qilur erdi. Mavlono Alo ul-mulk<sup>51</sup> tabib bila Mavlono Abdussalomi Sheroziyki, benazir muolij erdi — Pahlavong'a musohib erdi va doyim bu fan bahsida va guftu shunuftida alar Pahlavon so'zlarin musallam tutib, muolajalarin ham ta'rif qnlur erdi va ashobdin harqaysig'a maraz tori bo'lsa erdi, ko'pi ul erdikim, o'zi muolaja qilur erdi.

Yana fiqh ilmi<sup>52</sup> da ibodotdin faroyiz va sunan va vojibot va mustahabbot va bu ibodatg'a muvofiq ad'iyakim, ko'prak fuqaho va zuhhodg'a mazbut va mahfuz emas, Pahlavonga mazbut erdi.

Va ustod abyotin: masnaviy va qasida va g'azal va har sinf she'rdin xo'b va ham ko'p yodida erdi. Andoqki, har mahalda har nav' munosib nazmlardin shirin iborat va takallum bila va ba'zi mahalda rangin alhon va tarannum bila andoq ado qilur erdikim, aksar majlis huzzorig'a nasridin xabar va nazmidin asar voqe' bo'lub, riqqatlar dast berur erdi va ko'p mashoyixlar va ahlulloh va darveshlar majlisig'a bahramand va xizmat va mulozamatlaridin sarbaland va arjumand bo'lub, sharafi qabul

<sup>43</sup> Agar holim falakka ma'lum bo'lsa, yuz-ko'z bilan ahvolimga yig'lar edi; menda yangi ochilgan gul bor edi, vo darig' uni xazon shamoli olib ketdi; umr bo'yi yaxshilig' urug'ini ekdim, unib chiqqanda esa yig'ib ololmadim; shunng uchun hayot menga achchiq bo'ldi. Keksalik meni yoshlik pallasidan itqitib tashladi; endi men ul zanjirband sher emasman. Keksalik g'ami meni butunlay olib ketdi. Ota bolani shuning uchun tarbiya qiladiki, toki u katta bo'lganida g'amxo'rlik qilsin; undan yigitligida foyda bo'lsin, keksalik paytlarida esa, ishga yarasin. Meni keksalik shunday sindirdiki, yigitlik aslo foyda keltirmadi;

<sup>44</sup> Sanoyi' – san'at so'zining ko'pligi, hunarlar ma'nosida ham keladi. Bu yerda adabiy san'atlar nazarda tutiladi.

<sup>45</sup> Aruz – she'rning vaznlari, o'lchovlari haqidagi fan.

<sup>46</sup> Qofiya – she'rda bayt yoki misralar oxiridagi so'zning ikkinchi bayt yoki misra oxiridagi so'zga mos ohangdosh bo'lishi. Sharq poetikasida qofiyaning o'ziga xos nazariyasi bor. Shuning uchun qofiyaga oid adabiy ilm mavjud.

<sup>47</sup> Tajvid – Qur'on karimni talaffuz qoidalarini bilan o'qish. Bu ham ilm darajasida o'rganilgan,

<sup>48</sup> Ilmi nujum – osmon jismlari va uning haraktlarini o'rganuvchi ilm, astronomiya.

<sup>49</sup> Mavlid uchun royijai tole' – keyingi vaqtlarda keng tarqalgan garaskopni anglatadi.

<sup>50</sup> Mavlono Qutbiddin – o'sha davrning mashhur tabibi. Pahlavon Muhammad undan tib ilmini o'rgangan, asli Nasafdan bo'lgan.

<sup>51</sup> Mavlono Alo ul-mulk – Pahlavon atrofidagi tabib do'stlaridan.

<sup>52</sup> Fiqh ilmi – dinning yo'l-yo'riqlari, qoidalarini to'g'risidagi ilm.

topib va base har sifatdin ahli tariq pahlavonlar va ulug‘ kishilarga shoyista xizmat qilib, kisvatlar havola qilib erdilar. Haq subhonahu va taolo anga qobiliyat karomat qilib erdi. Har nav’ ishga xotir mutavajjih qilsa erdi — ul nav’ daxl qila olur erdikim, ul fan ahlining mohirlarig‘a mustahsan tushgay va bir nav’ qabuliyatni aning zotida xalq qilib erdikim, har nav’ xaloyiq bila ixtilot qilg‘och, alarning ko‘ngliga matbu’ va tab‘ig‘a mahbub erdi va pisandida atvori beg‘oyat va hamida ahloqu shiori benihoyat, mijozida bazlu saxo g‘olib va tab‘ida shafqatu raho mufrit, ulug‘larg‘a zotiy niyozmandlig‘ va xizmat va kichikroq notavonlarg‘a rasmi mehru shafqat va sarpayvandliq va mutavassitul-hollarg‘a ishi muloyamat va xo‘b zabonliq va fuqaro va masoking‘a varzishi muvofaqat va naf‘rasonlig‘. Kecharoklik va kunduzlik yigirma to‘rt soatda Pahlavonning tak‘yasyda hoh safarda, hoh hazarda tabx ishtig‘olidin farog‘at yo‘q erdi, turluk-turluk at‘ima erdi. Andoqki, bu ne‘matu ag‘ziyadin fuqaro va masokinu muqim va musofir mahzuz erdilar. Ag‘niyo va ahli tamkin va ozodalaru shohzodalar va akobiru ashrof bahramand erdilar, hattokim, sultonus salotin ham yetgach, bu mazkur bo‘lg‘on at‘imalar ham tortilur erdi va yetmasalar erdi — Pahlavonning ushoqlari ko‘tarib tog‘g‘a elturlar erdi va agar eltmasalar erdi — yuqoridan kishi kelib, tilab elta borurlar erdi va ashriba va favoqih va halviyot<sup>53</sup> hamul at‘imag‘a - yarasha muqarrar erdikim, tortilur erdi va har tarafdin kelgan fuqoro va g‘uroba va ak-sarash o‘n kun, balki bir oy-ikki oyg‘acha tavaqquf qilsalar erdi — bu ma‘kulot alarning ilayiga kulfatsiz, balki ikki-uch qatla tortilur erdi va ulog‘lariga arpa va somon, ulog‘lar va o‘zlariga orosta maskan ham tayyor erdi. Va bu xaloyiqdin ko‘pi andoq erdikim, borur chog‘larida Pahlavon muruvvat va karamidin yo‘l xarjisi va ba‘zi darveshona liboslar va tabarruklarg‘a ham mustafid bo‘lub erdilar. Jamii ahli turuq o‘zlarini Pahlavonning fotiha va takbirig‘a yetkurmag‘uncha o‘z tariqlarida ishlari tamom bo‘lmas erdi.

Borcha sodotu mashoyix va ulamoyu fuqaroning mahbub ul qulubi erdn va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyshon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg‘a Pahlavonning suhbat navro‘z va bayramcha bor erdi, hattoki sultonozodalar tilamas erdilarkim, bir lahza onsi bo‘lmas aylar erdikim, podshohzodalardin nechaki mu‘tamad otlanib, Pahlavonning tak‘yasiga borib, suhbatlig‘e qilg‘aylar erdi. Ul dag‘i borchasig‘a loyiq xizmatlar qilib, suhbatlar tuzib, ne‘matlar tortib, sozandalig‘ va go‘yandalig‘ buyurub, samo‘ va raqs qilib, alarni xushhol va munbasit uzotur erdi.

Va Sultonus-salotinning g‘arib shafqatu ulfati va ajib inoyatu nisbati Pahlavon borasida bor erdi. Hech suhbat tilamaslar erdikim. Pahlavondin ayru qilg‘anlar. Borcha majlis va mahfilda Pahlavon hozir erdi va suhbatnng xushlug‘ig‘a bois erdi.

Va she‘r va muammo va musiqiyki, suhbatning mujibi nishot va inbisotidur, chun Pahlavonning borchada vuqufu daxlu tasarrufi zohir, balkim ul fununda ahli fandek mohir erdi — suhbatning yuzi Pahlavong‘a evrulur erdi. Va Sulton us-salotnining nadimi majlis va anisi anjuman va xilvati va har rozda mahrami va har holda hamzabonu-hamdami erdi. Takallufsiz va mubolag‘asiz podshohdin gadog‘acha va ahlullohdin yahud va torsog‘acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo‘q erdi.

Subhonalloh, yuz ming hamdu sipos va sanoyi behadu qiyos ul qodir sun‘ig‘akim, har bandasig‘akim, bir ovuch tufroqdin xalq qilibdur, muncha qabuliyat va qobiliyat va axloqi hamida va atvori pisandida va zohir yuzidin muncha fazlu kamol va ma‘ni tarafidin muncha vajdi hol bera olurkim, bir jahon xalqin muloyamat bila sayd va bir olam ahlin zanjiri irodati bila giriftori beqayd qilg‘ay.

Alqissa, Pahlavonning borcha nav’ ishlarining xushlug‘i bayonida va har tavr siyrat va suratining dilkashlig‘ining sharhida zabonvarlar tili qosir va dostongustarlar nutqi ojizdur.

Qirq yilg‘a yaqin bu faqir bila musohibi jony mahrami rozi nihoniy erdi. Falokat ayyomidin zohir yuzidin taayyun va istitoat zamonig‘acha ko‘prak avqot bila ekandur. Biz ikovdin-ikov har ko‘yda yugurgan, o‘zni har ahli dil sharafi mulozamatig‘a yetkurgan. Aning rifqu muvofaqatin ne til bilan taqrir qila olg‘aymen va ne qalam tahriri bila bayon qila olg‘aymen.

<sup>53</sup> Ashriba va favoqih va halviyot – sharoblar, xo‘l mevalar va holvalar (qand-qurslar ham kiradi).

Mundin o'tmaski, qirq yil bir meningdek xudroy va besarupoy oshuftasori parishon ro'zgor kishi bila musohibliq qilg'ayki, xotirg'a kelmaski, andin xotirg'a g'ubore o'ltirmish bo'lg'ay va ko'ngulg'a yetmaski, hargiz andin ko'ngulg'a ozore yetmish bo'lg'ay, balki andoq nisbat qilmish bo'lg'aykim, kundan-kunga muhabbat rishtasi mahkamroq va mavaddat qoida va tariqi muakkad va mustahkamroq bo'lmish bo'lg'ay va hol ulkim, yetmish ikki firqa bila maoshi ushbu nahaj bila voqe' erdikim, har kishi aning muloyamatin o'z holig'a mulohaza qilsa erdi — xayolig'a bu kelur erdikim, andin maxsusroq va muloyimroq yori va musohibi yo'q erdi erkan.

Aning zehnu zakosi latofatidin va hofizasi tezligi va zarofatidin bir necha kalima xotirg'a kelur; ado qilmog'i holi az munosabate emas. Sulton Abusaid mirzo zamonidakim, Xuroson ahli Samarqand ahlig'a asir erdilar va har nav' zulm va taaddiki, alardin voqe' bo'lsa, bu asirlar mute' va farmonpazir.

Bu faqirni ayni iflosu falokat va sarnavishu ranjurish Mashhad sori tortib eltti va anda yetgandin so'ngra mafosil marazi<sup>54</sup> tori bo'lib, bir go'shada yiqildim. Ittifoqo Pahlavon xizmatlari ham ul ayyomda Mashhad erdi. Bu faqirning holidin xabar topg'ondin so'ngra har kun qadam ranja qilib, ulcha qoidai shafqat va yorlig' va tariqi muhabbat va g'amxorliq bajo kelturur erdilar — angachaki maraz daf' bo'ldi. Va Mavlono Abdussalom Sheroziy<sup>55</sup> rahimahullohki, ul zamonning mohir hakimi va hoziq tabibi erdi — bu zaifg'a muolij erdi. Andoqki, atibbo da'bidurki, mariz mizojida marazni zoyil qilg'ondin so'ngra chun adno xilt jild taxtida qolur — taraddud va dalk buyururlarki, ul mavodni tahlil bila daf' qilg'ay — ul dag'i bu faqirg'a buyurub erdi. Pahlavon mehribonliq va shafqat yuzidin har kun iyodatimg'a kelur erdi va dalk xodimlig'i va tariqin chun kishi andin yaxshiroq bilmas erdi va o'zi ham hakimsheva kishi erdi — iltifot qilib, ul amrg'a ishtig'ol ko'rguzar erdi. Qazoro, bir kunkim, sahari faqir bu she'rni aytib erdikim, matlai budirkim:

*Har qayon boqsam, yuzumga ul quyoshdnn nur erur,  
Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.*

Va bu she'r yetti bayt erdi va musavvir qilib jaybing'a solib erdim va hanuz kishiga o'qumaydur erdim va ko'rsatmaydur erdim.

Pahlavon iltifot yuzidin ma'xud dasturi bila egnimni tutar erdi, muqaddima bunyod qildikim:

— Seni bu kun derlarkim turkcha she'rni yaxshi aytursen va turkcha nazm aytur eldin eshitib, bizga bu so'zni musallam tutarlar. Bizning bir savolimiz bor.

— Javob beray, siz bori savolingizni ayting.

Dedi:

— Savolimiz budurki, turkiygo'y, shuarodin ulcha she'rlari ro'zgor safhasida sabtdur, qaysi yaxshiroq aytibdurlar? Va sening aqidang aning yaxshi aytmoqig'a borur, sen begonursen?

Faqir dedim:

— Borchax yaxshi aytibdurlar, men begonurmen.

Pahlavon dedi:

— Sen takalluf va kasri nafsni qo'y, voqe' yuzidin so'z aytki, buki: borini begonurmen dersen, borchax xud birdek emas, albatta tafovut bor.

Faqir aytimkim:

— Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur.

Dedi:

— Nechuk Sayid Nasimiy<sup>56</sup>, demading?

<sup>54</sup> Mafosil marazi – bo'g'imlarning zirqirash kasali.

<sup>55</sup> Mavlono Abdussalom Sheroziy – zamonasining mashhur hakimi, haqiqiy tabibi. Mashhad Navoiyni davolovchi tabib bo'lgan.

<sup>56</sup> Sayid Nasimiy – buyuk ozarbayjon shoiri, faylasufi. Ismi – Ali, Imodiddin – laqabi. Asli Shirvondan, 1370 y. da Shamohi shahrida tug'ilgan, ilk tahsilni ham shu shahar madrasalarida olgan. U avval «Husayniy», «Sayyid» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Nasimiy Temurning istilochilik siyosatiga va istibdodiga qarshi kurashga da'vat qiluvchi, ya'ni tariqat – hurufiylikni qabul qilgan va



Faqir dedim:

— Xotirg‘a kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g‘arazing majoz tariqida aytur el erdi.

Pahlavon e‘tiroz yuzidin kinoyatomuz dediki:

— Ravo bo‘lg‘ayki, Sayid Nasimiy borida Lutfiy nazmini pisand qilg‘aysen va hol ulkim, Sayid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin majoz tariqig‘a shomildur va ma‘ni yuzidin haqiqat tariqig‘a va yuqori bitgan baytni o‘qudikim, faqir bu sahar aytib erdim. Chun matla‘ni o‘qudi, o‘zga ab‘yotin ham mutaoqib bayon qildi va taxallusikim, bu nav‘ voqe‘ bo‘lubturkim:

*Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko‘rsa ranj,  
Yo‘q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.*

«Navoiy»ni «Nasimiy»ta tag‘yir berib o‘qudi va filvoqe‘ bu baytda Navoiy lafzidin Nasimiy lafzi munosibroqdur va faqir mutaajjib bo‘ldum. Ohistaroq ilgimni jaybing‘a elttim va mulohaza qildim: o‘zum bitib jaybing‘a solg‘on musavvada mavjud erdi, hayratu taajjubim ortti. Va Pahlavon hamul aytgan so‘zni ioda qiladur erdi va ul she‘rning abyotin mukarrar o‘qur erdi. Va bu faqir betahammul bo‘lub so‘rdumkim, ul ish kayfiyatini ma‘lum qilg‘aymen. Ul o‘zin yiroq tutti va o‘z so‘zida rusux ko‘prak zohir qildi. Faqir mubolag‘a qilg‘on soyy Pahlavon ham mubolag‘a ko‘rguzdi. Zarurat yuzidin so‘rdumki:

— Bu she‘rni qachon yod qilib tutub erding?

Dedi:

— O‘n ikki yil bo‘lg‘ayki, Bobur mirzoning majlisida bu she‘r o‘tar erdi, menga bag‘oyat xush keldi, bitib olib yod tuttum.

Bori har hol bila bukun o‘tti, ul tak‘yasig‘a bordi. Tongla hamul dastur bila yana keldi, yana suhbat bo‘ldi, yana bu so‘z orag‘a tushdi. Yana faqir so‘rdum va illoh qildimkim, bu ish kayfiyatini ma‘lum qilg‘aymen. Bu qatla xud dediki:

— Ul vaqtiki, men bu she‘rni yod tuttim, kushtigirlardin ham nechasi bor erdilar ham o‘rgandilar, — deb uch-to‘rt piyoda sort kushtigirniki, aning bila kelib erdilar tilab dediki: «O‘qung, andoqki mening bila o‘rganib erdingiz». Alar dag‘i paydarpay ravon o‘qudilar. Faqirg‘a taajjub ustiga taajjub

---

uni faol targ‘ib-tashviq etgan. U bu jabhada keyinchalik unga do‘st bo‘lib qolgan ustozi, hurufiyliq tariqatiga asos solgan Fazlulloh Naimiy bilan tanishgach «Nasimiy» taxallusini oladi. Naimiy Mironshoh tomonidan qatl etilgach, vatanini tark qilgan, Nasimiy Bag‘dod, Onato‘li, Tokat, Bursa va boshqa joylarda yashaydi, oxiri Halabda qaror topadi. Misr sultoni Muayyaddin Nasimiyning dahriylikda ayblab, 1417 yilda uni tiriklayin terisinn shildirib, qatl etishga erishdi. Shoirning fojiali o‘limi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da shoir haqida yozadi: ...mazkur bo‘lgan mulk ahlig‘a aning she‘ri muqobalasida hamonoki she‘r yo‘qtur. Hamono taqlid ahli (riyokorlar – S. G.) ani mazhabida qusur tuhmatiga muttahaq qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so‘yar hukm bo‘lub-tur.. Ul holatda bu she‘rni debdurkim,

N a z m:

*Qibladur yuzung, nigoro, qoshlaring mehroblar*

*Surating mushaf, vale xolu xating e‘roblar.*

Va bu she‘rning taxallusi ushbu muddaog‘a doldurkim:

N a z m:

*Ey Nasimiy, chun muyassar bo‘ldi iqboli visol,*

*Qo‘y, teringni so‘ysa so‘ysin, bu palid qassoblar.*

Aytish keraki, bu maqta‘ bayt Navoiy tarjimasida berilgan. «Qatrada osmon aks etadi» deganlaridek, bayt Navoiyning yuksak tarjimonlik mahoratini namoyon qiladi. Baytning asli quyidagichadir:

*Chun Nasimi jovidoni yor ila bo‘ldi visol,*

*Go‘y necha donarsa donsun bu yashil dulablar.*

Birinchi baytning ikkinchn misrasidagi «Mushkin xating»ni Navoiy «xolu xating» deb bergan.

Bu yerda Navoiy Pahlavon Muhammadga Nasimiy she‘riyatining mohiyati – haqiqat tariqi – yo‘llarini bayon etishlik bo‘lgani haqida fikr bildiradi. Unga e‘tiroz bildirib, Pahlavon deydi, Nasimiy she‘rlari zohiran majoziy, botinan esa haqiqiydir.

voqe' bo'ldi va Pahlavon so'zi sidqida mubolag'a qilur erdi. Agarchi mubolag'a xojat emas erdi, nevchunkim, sidqi da'vosida necha tonuq ham o'tkardi.

Oqibat andoq ma'lum bo'ldikim, egnimni ulaydurg'onda jaybimda qog'oz ko'rubtur, ohistaliq bila ul qog'ozni chiqorib ko'rubtur va ma'lum qilibdurki, ushbu yaqinda aytilg'on she'rdur. U qog'ozni ochuq yonida qo'yubdur va yod tutubdur va chirmab, jaybing'a solibdur. Hamul zamon bo'lg'on so'zlarni orag'a solibdur. Oqshomki, tak'yasig'a boribdur, kushtigirlariga taklif bila o'rgatibdur va buyurubdurki, ehtimomi tamom bila takrrr qilibdurlarki ravon o'qur chog'da ravon o'qug'aylar.

Pahlavonning ul nav' g'arib ishlari va ajib zarofatlariki, tab'g'a mujibi taajjub va aqlg'a boisi tahayyur bo'lg'ay — ko'p erdi.

*Dar silsilai faqir ba irshodi tuem,  
Dar shomu sahar hamesha bo yodi tuem,  
Dar doirai fano ba avrodi tuem,  
Ya'ne ki yatimi Ne'matobodi tuem<sup>57</sup>.*

Pahlavon javob bitgan ruq'ada bu ruboiyni bitib erdikim:

*E, Mir, tu piru mo ba irshodi tuem,  
Doim ba duogo'iyu bo yodi tuem,  
In shahr ba tu xush astu mo bo tu xushem,  
Murdemu xarobi Astrobody tuem<sup>58</sup>.*

Sulton Sohibqiron asari inoyatidin va mahzi tarbiyatidin Pahlavonning ishi ulug' bo'ldi. Andoqki, ulug'luqg'a ta'zim qilurlar erdi va istihqoqi bor erdi va Ne'matoboddakim, aning tak'yasi erdi — podshoh davlatidin yuzga yaqin kushtigir yana muncha hamdin ortuq soyir xuddom Pahlavon xizmatida bor erdilarkim, yuzcha kushtigirdin o'nchasi talabkash va yigirmaga yaqini qadargir va jaldi navxostakim, borcha ma'rakada tutarlar erdi. Hattokim, salotin zamonida ham yana o'n-o'n besh sozanda va go'yanda va xonandakim, ul silsila ahlidin hech qachon hech qaysig'a dast bergani ma'lum emas. Va munga yarasha borcha tartibu odob va tazyinu asbob muhayyo erdiki, bayak bora Pahlavonning ushoqlaridin biri bu faqir qoshig'a iztirob bila yugurub keldiki, Pahlavong'a bevosita g'ashe<sup>59</sup> voqe' bo'lubtur va hushi zoyil bo'lub, bexud yiqilibdur, sizga xabar qilduqki, tabib yuborgaysiz. Faqir filhol Mavlono Abdulhay<sup>60</sup> bila Mavlono Nuriddinkim, hozir erdilar, ta'jil bila yubordim. Alar boshig'a yetguncha Pahlavon xud o'zga olam azimatig'a oyoq urgan ekandur. Atibbo bir zamondin so'ngra Pahlavon motamidin g'amzada bo'lub, yuz dardu hasrat bila qaytib keldilar.

Bu holdin Sulton Sohibqiron mizojig'a g'arib anduh va iztirob tushub, g'oyat huzn va malolatdin talx-talx sho'roba to'kub, hoy-hoy yig'ladi va shahzodalar dag'i ushbu dastur bila motam amrig'a murtakib bo'ldilar va arkoni davlatdin oliy miqdor umaroi zavil — iqtidor va vuzaro va sohib tamkin ichkilar va xususiyat oyin gulchehralar va soyir eshik ahliki, borcha Pahlavong'a yor vahavodor erdilar, beixtiyor so'gvorliq rasmini bajo kelturub, o'zni motamiy tuttilar va shahr aholisidin sodoti

<sup>57</sup> Tarj.: Faqirlik yo'lida sening irshod (to'g'ri yo'llar ko'rsatish)ing bilanmiz. Kecha-kunduz hamisha sening yoding bilanmiz. Fano doirasida sening nomingni takrorlash bilanmiz. Ya'ni, sening Ne'matobodining yetimlarimiz.

<sup>58</sup> Tarj.: Ey Mir (ya'ni Navoiy – S. G'.) sen pirsan, biz sening irshoding bilanmiz. Doim sening duogo'yingmiz va yoding bilanmiz. Bu shahar senga yaxshi, yoqimlidir va biz sen bilan xursandmiz. Biz o'ldik, Astrobodining xarobimiz.

<sup>59</sup> G'ashe – qandaydir dard.

<sup>60</sup> Mavlono Abdulhay – tabib, Xondamir «Habib us-siyar»da Mavlono Abdulxayni tabobat ahlidan G'iyosiddin Aziz va Ulo ul-mulkilar bilan bir yerda tilga oladi. Ularning uchalasini «Amir» unvonlari bilan beradi va saroyda mansab va obro'lari yuqori bo'lganini qayd qilib o'tadi. «Makorim ul-axloq»da esa, Mavlono Abdulhay Navoiy hastining oxirgi damlarida yonida bo'lgani va tabiblardan Mavlono Shamsuddin Muhammad Chiloniy bilan shoir tomiridan qon olganliklarini yozadi.

Pahlavon Muhammadning so'nggi damlarida Navoiy o'z huzurida bo'lgan mavlono Abdulhay va Mavlono Nuriddinlarni darhol uning yoniga jo'natadi, lekin fursat o'tgan, Pahlavon bandalikni bajo keltirgan bo'ladi.

oliyshon va ulamoi oliymakon vamashoyixi izom va quzoti kirom va xavosu avom majmui ta'ziyat tutub, libosig'a tag'yir berib, marsiya va ta'rixlar aytib, daynini o'zlarig'a iqrar qildilar, balki boshqa-boshqa o'zlarin sohib azo ko'r-guzub, oshub va shayn zohir qildilar. Va zarofatosor shuaro va diqqatshior zurafoki, Pahlavonning borcha vaqt musohibi erdilar va haqiqat maob ahli tariq va tariqat intisob ahli tahqiq, Pahlavon doyim alarning xizmat va diljo'yilig'ig'a ishtig'ol ko'rguzur erdi — borcha ma'lul va gir'yon va ul motamdin parishon va besaru-somon bo'ldilar va tegrasidagi yori ushshoq va mulozimlar va hamnishin va soyir fuqaro va masokin «vovoylo, vomusibato!» niqobin falaki asirg'a tortib, nav-halar va nudbalar ko'rguzdilar.

Va Sultoni Sohibqiron Pahlavonning madfanin Ne'matobod ichidakim, Pahlavon uchun yasag'on erdi — ta'yin qildilar va anda dafn qildilar. Va podshohona jashn tuzub, azim oshlar berib, xatm qoidasini bajo kelturdilar.

Chun Hazratn Mahdumiy Shayx ul-islomiy qahf ul-anomiy<sup>61</sup> Mavlono Nuriddin Abdurahmon il-Jomiy<sup>62</sup> (qaddasallohu ruhuhu)din bir yil so'ngra Pahlavon hamul Hazratning payravlig'ig'a; bu fano tangnoyidin baqo gulshani fazosig'a xirom ko'rguzdi va ul Hazratning Pahlavon bila benihoyat iltifotlari va behaddu g'oyat maxsus muloyamat va holatlari bor erdi, favtining ta'rixi g'arib uslub bila voqe' bo'lubdurkim, favtlarning ta'rixi bo'lur:

*Muhammad Pahlavon haft kishvar,  
Ki dar dahrash navbad aqronu amsol.  
Saru sarhalqai ahli tariqat,  
Ki raft az qaydi geti forig' ul-bol.  
Zi ba'di qutbi olam orifi Jom,  
Ki o' mahdumi davron bud az iqbol.  
Pas az sole so'i jannat xiromid,  
Az in derina dayri muxtalif hol.  
Agar pursad kase ta'rixi favtash,  
Biguyam: «ba'di Maxdumi ba yak sol»<sup>63</sup>.*

Haq subhonahu va taolo har zamon yuz qandil nur va har dam ming mash'al berur, purfutuh ruhig'a nozil qilsun va aning ruhi madadidin bu shikasta va g'amzada va bu xasta motamzadaning dunyo maqosidin va oxiri murodotin hosil!

*To hashr uza aning marqadi purnur o'lsun,  
Haq rahmatidin ravon mag'fur o'lsun,  
Jannat chamanida ruhi masrur o'lsun,  
Kavsar suyi besoqiy anga hur o'lsun.*

<sup>61</sup> Qahf ul-anomiy – insonlar tayanchi, panohi demakdir qahf g'or, Qur'oni karimning «qahf» surasidagi birodarlar uzoq muddat uxlab qolgan g'or bo'lib, sig'inadigan joyni ham anglatadi.

<sup>62</sup> Abdurahmon Jomiy – qarang: shu kitob, 113-bet.

<sup>63</sup> Tarj.: Muhammad Pahlavon – yetti o'lka pahlavoni. Dunyoda uning tenggi, o'xshashi yo'q. Tariqat ahli (sufiylar – S. G'.) ning boshi va sarhalqasi (aqli – S. G'.) dunyo kishanlaridan qanot yozib ketdi. Olam tayanchi, Jom ma'rifatchisi iqbol yuzasidan davrning hurmatli zoti (ya'ni, Jomiy – S. G'.) ketidan bir yildan keyin rang-barang ko'rinishdagi bu ko'hna dunyodan jannat tomon xirom qildi. Agar kimda-kim vafoti ta'rixii so'rasa, «Mahdumdan keyin bir yil o'tgach» – deb ayting. Bu yerda ta'rix moddasi «ba'di maxdumi ba yak sol» bo'lib, abjad hisobida 899 – 1433 yil chiqadi.